



GRAPHIC ACTIVITY AND ITS EDUCATIONAL IMPORTANCE

Ismoilova Nohida Mahmudovna¹, Komilova Salima Qudratovna²

¹ Gulistan city 5th general secondary education
school teacher

<https://doi.org/10.5281/zenodo.4897874>

ARTICLE INFO

Received: 20th May 2021
Accepted: 25th May 2021
Online: 30th May 2021

KEY WORDS

Drawing, abilities, imagination, the formation of spatial imagination, perception, modeling, activity.

ABSTRACT

Plays an important role in the formation of geometric representations, the expansion of their spatial imagination, the development of constructive and inventive skills, the development of geometric laws in accordance with the rules, the development of qualities necessary for professionals.

ГРАФИК FAOLIYAT VA UNING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Ismoilova Nohida Mahmudovna¹, Komilova Salima Qudratovna²

¹ Guliston shaxar 5-umumiy o'rta ta'lim
maktabi o'qtuvchisi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 20-May 2021
Ma'qullandi: 25-May 2021
Chop etildi: 30-May 2021

KALIT SO'ZLAR

Chizma, qobiliyat, tasavvur qilish, fazoviy tasavvurlarini shakillantrish, idrok, modellashtirish, faoliyat.

ANNOTATSIYA

Geometrik tasavvurlarini shakllantirish, ularning fazoviy tasavvurini kengaytirish, konstruktiv va ixtirochilik qobiliyatlarini oshirish, geometrik qonun qoidalar asosida rivojlantrish bilan kasbiy ixtisoslikdagi xodimlarga zarur bo'lgan sifatlarini paydo qilishda katta rol o'ynaydi.

Grafik faoliyat tabiat va tehnikani ko'rgazmali idrok etish, predmetlarini obrazli – belgili modellashtirish vositasida ularning tuzilishi va fazoviy munosabatlarini chuqurroq o'rganish va shu bilan birga ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan jarayonlar va hodisalarni sinchiklab o'rganishda yordam beradi.

Shuningdek, grafik faoliyat o'quvchilarning aqliy rivojlanishini o'stirishda predmetlarni ko'z bilan idrok etish

samaradorligini o'sishida, fazoviy faraz va hotira jarayonini faollashtirishda va mantiqiy tafakkurni rivojlantrishda muhim ahamiyatga ega.

Ta'lim jarayoni ko'ngildagidek tashkil etilsa, bu faoliyat shahsning har tamonlama kamol topishiga ta'sir etadi. Ayniqisa, o'quvchilarda ijodga intilish, bunyodkorlik, loyhalash va rasionalizatorlik takliflarini olg'a surish, yangilikka intilish, obrazli – belgili



tajribalarni o'tkazish kabi sifatlarni rivojlantiradi.

Grafik faoliyat haqida so'z borarkan, avvalambor faoliyatning o'zini tahlil qilib chiqish lozim. Psixologiyada faoliyat inson hayotining, uning voqelikka nisbatan faol munosabatining ro'yobga chiqish formasi deb tushuniladi.

Har qanday faoliyat muayyan maqsadgamuvofiq yo'naltirilgan ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisidan iborat. Faoliyat asosan – o'yin, o'qish mehnatdan iborat.

Grafik faoliyat deganda insonning grafik tasvirlar yasashdagi faoliyati tushuniladi. Shuning uchun ham biz, grafik faoliyat deganda, atrofimizdagi bizni o'rab turgan moddiy dunyo va hodisalarni belgili obrazlar vositasida grafik tasvirlash jarayonini tushunamiz. Narsalarning real xususiyatlarini ularning tasvirlari bo'yicha tahlil qilish (chizmani o'qish) grafik faoliyatning muhim turidir. Chizmani tuzish va uni o'qish, bular har hil tushunchadir. Ammo bu tushunchalar ko'pincha bir – biri bilan o'zaro shunday kirishib ketadiki, ularni ajratib ko'rsatishda katta qiyinchiliklar tug'iladi.

Masalan, chizmani yasash jarayonida uni o'qish doimo nazorat qilish vazifasini bajarib, alohida harakat sifatida chizmani yasashdai rafik faoliyatni boshqarib boradi. Bu holda chizmani o'qish tasvirni yasashga qaratilgan grafik faoliyatning bitta bo'g'ini hisoblanadi.

Hozirgi zamon ishlab chiqarishida chizmaga g'oyat katta talablar qo'yilmoqda, bu talablarning bu talablarning barchasidan habardor bo'lish, chizmani bajarishda qabul qilingan belgili obrazlarni tushuna bilish chizmachilik mutahasislari uchun zarur.

Ishlab chiqarishning hamma bo'g'inlarini kompleks avtomatlashtirish va mehanizasiyalashtirish inson faoliyatining

mazmuni va hususiyatini sezilarli ravishda o'zgartirib yubormoqda.

Insoning harakat operasialari mashinalar ihtiyoriga, shu bilan birga turli ma'lumotlarni qabul qilib, uni fikran qayta ishlash bilan bog'langan aqliy operasialarnig salmog'i sezilarli darajada oshib bormoqda. Ishlab chiqarish electron hisoblash qurilmalari va programmali boshqariladigan mashinalarning kiritilishi bilan bu operasialar murakkablashib bormoqda.

Agar jamiyat ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining mu ayyan bosqichlarida insonning grafik savodxonligi obektlarning grafik modellariga ko'ra ish olib boorish uquvi bilan belgilangan bo'lsa, hozirgi davrga kelib abstract va simvolik shakilda sxematik va belgili modellar bilan tez – tez ish ko'rishga to'g'ri kelmoqda.

Hozirgi vaqta insonning grafik tayyorgarlik saviyasi grafik tasvirlar yasash texnikasini egallash darajasi bilan emas, balku uni obrazli – belgili modellarni fikran almashtirishga qay darajada tayyor ekanligi uning obrazli tafakkuri bilan aniqlanadi. Inson faoliyatida texnikaning roli chuqurroq tahlil qilib ko'rilsa, quydagi ikki hulosa kelish mumkin. Birinchidan, insonning obrazli tafakkur qilish qobiliyatini rivojlanishiga, uning fazoviy tasavvurini qo'zg'aluvchanligiga bo'lgan talablar oshib bormoqda.

Bunday rivojlanishning muvaffaqiyatli ta'limning mazmuni va o'qitish metodlarini takomillashtirilishiga bog'liq1. Hech bir o'quv predmeti o'quvchilarining fazoviy tasavvurini chizmachilikdek rivojlantira olmadi.

Ikkinchidan, predmetning fazoviy hususiyat va munosabatlari haqida axborotlar berish va ularni saqlashda grafik vositalarning ro'li misilsiz oshib bormoqda.

Shu boisdan tehnika tili bo'lmish chizmaning ro'li ortib bormoqda. Ayniqisa,



umumiy ta'lim va hunar maktablarida umumtehnika va mahsus predmetlarni grafik savodxonlikka ega bo'lmay turib o'zlashtirib bo'lmaydi.

Grafik faoliyatning ahamiyati haqida so'z borar ekan, uning o'quvchi – yoshlarga ko'rsatadigan tarbiyaviy ta'sirini ham o'rganish lozim.

Chizmachilik darslarida tarbiyaviy ishlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining siyosiy – g'oyaviy tayyorgarligiga, maktab oldiga jamiyat tomonidan qo'yilgan eng muhim masalalarni tushuna bilishiga bog'liq chizmachilik o'qituvchilari kelajak jamiyat kishilarini tarbiyalashdek muhim ishga o'z hissalarini qo'shmoqlari darkor. Bu qo'shiladigan hissani to'laqonli bo'lishi uchun chizmachiliko'qitish jarayonidagi tarbiyaviy ishlarning maqsad va vazifalarini aniq va ravshan tushunmoq zarur. Shunga qaramay, hozirgi vaqtga qadar chizmachilik darslarida tarbiyaviy ishlarga oid bironta tadqiqod yoki tavsiya respublikamizda mavjud emas. Bu, ayniqisayosh o'qituvchilarga muayyan qiyinchilik tug'diradi.

Chizmachilik o'qitish jarayonida o'quvchilarga o'tkaziladigan tarbiyaviy ta'sirlar xilma – xil bo'lishidan qat'iy nazar, ulardan eng muhimlarini aytib o'tish lozim.

- O'quvchining obro'si va shahsiy namunasi orqali bolalarga tarbiyaviy

ta'sir o'tkazish. O'qituvchi hamma jihatdan o'quvchilarga shahsiy namuna ko'rsatish kerak. O'qituvchi tomonidan doskada bajarilan chizma, aniq, ravshan va chiroyli bo'lib o'quvchilarni harakatlantiradigan darajada bo'lish kerak.

- Chizmachilik predmetning mazmuni orqali o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish. O'quvchilarga dialektik materialistik dunyo qarash elementlarini maktab chizmachilik kursining alohida ko'rsatmalari bilan bog'lab amalga oshirishlari zarur.

- Darsning tashkiliy jarayonida va o'qitish metodlari orqali o'quvchilarga tarbiyaviy ta'sir ko'rsatish. Darsni va ish o'rinlarini to'g'ri tashkil etish o'quvchilarda intizom va ijtimoiy mulkni asrab – avaylash kabi hislatlarni tarbiyalaydi. O'qituvchi o'qitishning turli uslublarini qo'llab o'quvchilarda fazoviy tasavvurni rivojlantrib, chizma asboblardan foydalanishda ehtiyot bo'lish, grafik yasashlarda aniqlik va tartiblilik, topqirlik kabi xislatlarni tarbiyalaydi.

Mana shu tarbiyaviy ishlar darsning hamma o'rganilayotgan o'quv materyallarining tarkibiy qismlari. Shuning uchun ham ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligini hisobga olib, odatda "Ta'lim – tarbiya jarayoni" degan tushuncha ishlatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'ZA- O'zbekiston Respublikasi Prezedenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojatnomasi. 2020yil 24-yanvar.
2. U. Abdullayev. Chizmageometriya va chizmachilik asoslari. 1999 y.
3. "Umumiy o'rta ta'lim maktablarida chizmachilik ta'limi konsepsiyasi" 1995-y.
4. R. Xorunov. "Chizmageometriy akursi" Toshkent, O'qituvchi – 1999-y.
5. A. Umronxo'jaev. "Maktabda chizmachiliko'qitishni takomillashtirish" Toshkent, O'qituvchi – 1993-y.